

Ўз вақтида огоҳлантириш, қутқариш ва ёрдам бериш асосий вазифамиздир!



○ Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлиги нашри ○

Газета 2004 йил 7 майдан чиқа бошлаган



Мамлакатимиз тараққиётининг янги босқичида хотин-қизларнинг жамият ҳаётидаги ўрни ва мавқеи ошиб бормоқда. Гендер тенгликни таъминлаш, хотин-қизларнинг ижтимоий-сиёсий фаоллигини кучайтириш, ҳуқуқ ва имкониятларини кенгайтириш борасида амалга оширилаётган тизимли ишлар "Қутқарувчи аёллар форуми"нинг асосий мавзуси бўлди.

Илк маротаба ФВВ томонидан Тошкент вилоятининг Бўстонлиқ туманида ташкил этилган тадбирда тизимда хизмат қилаётган 120 нафардан зиёд ҳарбий хизматчи ва хизматчи аёллар иштирок этди. Мазкур тадбир Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Оилаларни мустаҳкамлаш ва хотин-қизларнинг фаоллигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги қарори ижросини таъминлаш мақсадида ўтказилди.

Жорий йилнинг 24-25 июль кунлари бўлиб ўтган ушбу форумда Фавқулодда вазиятлар вазирининг биринчи ўринбосари – Штаб бошлиғи полковник С.Зупаров ҳамда Оила ва хотин-қизлар қўмитаси раиси О.Парпиева иштирок этди.

Тадбир қатнашчиларига жамият тараққиётида хотин-қизларнинг роли ва ўрни, уларга яратилаётган шароит ва имкониятлар борасидаги масалалар тўғрисида тушунтириш берилди.

Қайд этилганидек, хотин-қизларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини таъминлаш, оила институтини ҳар

томонлама мустаҳкамлаш бўйича амалга оширилаётган давлат сиёсати, соҳага оид йирик ислохотлар ва уларнинг амалий натижалари дунё ҳамжамияти томонидан эътироф этилмоқда.

Мамлакатимизда амалга оширилаётган ислохотлар натижасида хотин-қизлар масалалари бўйича, яъни аёлларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, уларнинг жамият ҳаётидаги фаоллигини ошириш мақсадида меъёрий-ҳуқуқий база халқаро стандартлар асосида такомиллаштирилиб, ташкилий-институционал база мустаҳкамланмоқда. Стратегик ва концептуал ҳужжатлар қабул қилиниб, уларнинг ижроси таъминланмоқда. Гендер тенглик, хотин-қизларнинг ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий фаоллигини оширишга қаратилган комплекс чора-тадбирлар амалга ошириб келинмоқда. Янги Ўзбекистонда хотин-қизларнинг жамият ва давлат бошқарувида фаол иштирок этишига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Гендер тенгликни таъминлаш борасида илғор тажрибалар



ўзлаштирилиб, ижобий натижаларга эришилмоқда.

Берилаётган бундай эътибор самараси ўлароқ хотин-қизлар ҳаётининг турли соҳа ва тармоқларида, бу давлат ва жамият қурилиши, саноат ёки қишлоқ хўжалиги бўладими, таълим-тарбия ёки соғлиқни сақлаш, илм-фан, маданият ва спорт бўладими, буларнинг барчасида фидо-корона меҳнат қилиб келишмоқда. Мутасаддиларнинг қайд этишича, ўтган йилларда хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш, уларга муносиб шароитлар яратиш йўлидаги чора-тадбирлар самарадорлигини ошириш мақсадида турли норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинган.

Тадбир давомида хотин-қизларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини таъминлаш борасида олиб борилаётган кенг қўламли ислохотлар ҳақида тақдимотлар қилинди. Тизимда хотин-қизларнинг роли ва ўрнини оширишга қаратилган янги ташаббус ва таклифлар илгари сурилди. Вазирлик хотин-қизлар маслаҳат кенгашини ташкил этиш бўйича низом тақдими бўлиб ўтди.

ФВВ Молия-иқтисод бошқармаси бўлим бошлиғи полковник Гулжан Тўрехожаева ушбу кенгашнинг раиси этиб сайланди.

Таъкидлаш жоизки, аёл бахтли бўлса, оила ва жамиятдаги муҳит барқарор бўлади. Барқарорлик бор жойда эса улкан-улкан марраларни

қўлаб юксакка интилиш мумкин. Бу йўналишдаги саъй-ҳаракатлар самарадорлигини таъминлашда давлат фуқаролик хизматида хотин-қизларнинг ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш ва гендер тенгликни таъминлаш муҳим аҳамият касб этади. Мамлакатимизда амалга оширилаётган ислохотлар кенг қамровли бўлиб, улар хотин-қизларнинг таълим олиши, иш ва уй-жой билан таъминланиши, уларга тенг меҳнат шароитлари яратилиши, бир сўз билан айтганда, ҳар томонлама қўллаб-қувватлашни ўз ичига олади.

Тадбир давомида хотин-қизларнинг ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш, уларнинг қарорлар қабул қилишдаги иштирокини кенгайтириш, гендер тенглигини таъминлаш, аёлларнинг ижтимоий муаммоларини ўрганиш ва тизимли ҳал этиш механизмлари, хотин-қизларнинг таълим олиш имкониятларини кенгайтириш, инновацион лойиҳаларни қўллаб-қувватлаш, глобаллашув жараёнларида оилавий кадриятларни сақлаш ҳамда оила институтини мустаҳкамлаш масалалари атрофича муҳокама этилди. Саёҳатлар ташкил этилди. Хотин-қизларнинг пазандачилик маҳорати синондан ўтказилди.

Анвар ҚОБИЛОВ ва  
Моҳичеҳра МИНГБОЕВА  
тайёрлади.





## ВАЗИФАЛАР БЕЛГИЛАБ ОЛИНДИ

Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокуратураси томонидан Қуролли Кучлар тизимидаги вазирлик ва идораларнинг 2024 йилнинг 6 оyi давомида қонун устуворлигини таъминлаш, қонунийликни мустаҳкамлаш, ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш борасидаги фаолияти юзасидан мувофиқлаштирувчи кенгаш йиғилиши ўтказилди.

Видеоконференцалоқа тарзида ўтган мулоқотда ҳарбий прокуратура органлари ходимлари, Қуролли Кучлар тизимидаги вазирлик ва идораларнинг вакиллари ҳамда масъул офицерлари иштирок этди.

Жараёнда Президентимиз, Қуролли Кучлар Олий Бош қўмондони томонидан Хавфсизлик кенгашининг жорий йил 12 январдаги кенгайтирилган йиғилишида белгилаб берилган топшириқлар ва вазифалар ижроси доирасида амалга оширилган чора-тадбирлар натижаларига алоҳида эътибор қаратилди.

Муҳокамаларда, шунингдек, ҳарбий хизматчиларнинг ҳуқуқий маданиятини янада юксалтириш, ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини тўлақонли рўёбга чиқариш йўналишларидаги чора-тадбирлар натижалари сарҳисоб қилинди.

Ҳарбий хизматчиларнинг ва оила аъзоларининг ижтимоий ҳимоясини амалда тўлиқ таъминлаш, ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш борасидаги ишлар ва бу борада ҳамкорликдаги тадбирлар бўйича аниқ тавсиялар билдирилди.

Ҳамкорликдаги чора-тадбирларни давом эттириш, уларни амалга оширишда замонавий ахборот-коммуникация технологиялари ва оммавий ахборот воситалари имкониятларидан кенг фойдаланиш ҳамда фаолиятга доир қатор масалалар юзасидан келгуси вазифалар белгилаб олинди.

Мувофиқлаштирувчи кенгаш йиғилиши якунида кўриб чиқилган масалалар юзасидан тегишли қарор қабул қилинди.

**Ш.САНАЕВ,**  
Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий  
прокуратураси бўлим бошлиғи,  
адлия полковниги.

## ЖИДДИЙ ЭЪТИБОР

Қарши тумани маҳалла фаоллари билан ҳамкорликда оталиққа олинган ёшлар билан манзилли ишлар ташкиллаштирилди. Ҳудудда истиқомат қилаётган ёшларнинг муаммолари ва оилавий шароитлари хонадонбай ўрганиб чиқилди ва бу борада амалга оширилиши зарур бўлган ишлар юзасидан йўл хариталари ишлаб чиқилиб, бартараф қилишга киришилди.

Туман ФВ бўлими раҳбарлигида Кожор қишлоғидаги қизил тоифага киритилган хонадонлардаги ёшларнинг шарт-шароитлари мунтазам равишда ўрганиб борилмоқда.

Ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш, уларни тўғри йўлга йўналтириш, бўш вақтларини мазмунли ўтказиш учун спорт мусобақалари ташкил этиш масаласига жиддий эътибор қаратилмоқда.

**У.ЖўРАЕВ,**  
Қашқадарё вилояти ФВБ  
“Шўртан ГKM” МЧЖ  
ОЙХТТЕБ бошлиғи, подполковник.



Тошкент ҳарбий прокуратураси томонидан “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси куни” доирасида ҳарбий қисм ва муассасаларда профилактик тадбирлар ўтказилиб келинмоқда.

## ОЧИҚ МУЛОҚОТ

Хусусан, Мудофаа вазирлигига қарашли “Ғалаба боғи” ёдгорлик мажмуасида Маънавият ва маърифат маркази, марказий ашулла ва рақс ансамбли шахсий таркиби иштирокида ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишга қаратилган мулоқот ўтказилди.

Унда фирибгарлик, пора олиш, пора бериш, пора олиш-беришда воситачилик қилиш, ҳокимият ёки мансаб ваколати билан боғлиқ жиноятлар, уларнинг мазмун-моҳияти, бундай қилмишлар учун назарда тутилган жавобгарлик ва уларнинг ҳуқуқий асослари ҳақида сўз юритилди.

Сухбатларда мулоҳаза юритилган мавзулар бўйича берилган саволлар юзасидан ҳаётий мисоллар билан қонуний асосларда ҳуқуқий тушунтиришлар берилди.

Тадбир давомида мавзуга доир намоёиш этилган видеоролик қатнашчиларни янада ҳушёрликка ундади.

**О.МЕНГЛИЕВ,**  
Тошкент ҳарбий прокурорининг ёрдамчиси,  
адлия майори.

## ИЖТИМОЙ ҲИМОЯ

Шимоли-Ғарбий ҳарбий округ кўшинлари қўмондонлиги, Нукус ҳарбий прокуратураси, ҳокимлик ва фахрийлар кенгаши ҳамкорлигида Тахтақўпир тумани “Жанадара” маҳалласида комплекс тадбир ўтказилди.

Даставвал Нукус ҳарбий госпиталининг замонавий кўчма тиббий лабораторияси ва тиббий жиҳозлари, шунингдек, кардиолог, терапевт, офтальмолог, лор, невролог, хирург, эндокринолог, стоматолог каби қатор малакали шифокорлар жалб этилган ҳолда, маҳалла аҳолиси учун чуқурлаштирилган тиббий кўрик ташкил этилди.

Фуқаролардан 34 нафари УЗИ, 33 нафари ЭКГ, 20 нафари эндокринолог, 10 нафари хирург, 22 нафари травматолог, 76 нафари

невропатолог, 85 нафари терапевт, 67 нафари лор, 53 нафари кардиолог кўригидан ўтказилди.

Шунингдек, алоҳида эътиборга муҳтож ва ногиронлиги бўлган фарзандлари бор оилаларга уй жиҳозлари улашилди.

Куннинг иккинчи ярмида болалар ва ёшлар учун ватанпарварлик сайли ўтказилди.

**У.АБДИРАҲИМОВ,**  
Нукус ҳарбий прокурори,  
адлия полковниги.

## ИЖОБИЙ ЕЧИМ

Деҳқонбод тумани “Бойқўрғон” МФЙда яшовчи айрим фуқароларнинг яшаш уйи томорқасини ёгингарчиликлар сабаб юзага келатган сел сувлари ювиб кетиш хавфи борлиги ҳақида муроҷжат йўлланган.

Мурожаат юзасидан, Қашқадарё вилояти ФВБ масъуллари томонидан юқоридаги манзилларда ўрганиш ишлари олиб борилди. Қисқа вақт ичида барча зарур куч-воситаларни жалб этган ҳолда, у ерда дарё қирғоқларини мустаҳкамлаш ишлари бошлаб юборилди.

Ўтказилган муҳандислик-муҳофаза тад-

бирлари давомида маҳалла худудидан оқиб ўтувчи “Катта ўра” дарёсининг қарийб 500 метрдан ортиқ масофага кенгайтириш, ўзан тозалаш ва қирғоқ мустаҳкамлаш ишлари амалга оширилди.

**Ф.ХИДИРОВ,**  
Қашқадарё вилояти ФВБ бўлим кичик инспектори,  
сержант.

## ҚИЗЛАР БЕЛЛАШУВИ

Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокуратураси томонидан “Мен ватанпарварман” шиори остида ўқувчи-қизлар ўртасида ўтказиб келинаётган кўрик-танловлар давом эттирилмоқда.

Навбатдаги тадбир бу гал Тошкент вилояти Бўстонлиқ туманидаги Миллий гвардияга қарашли “Камалак” болалар соғломлаштириш оромгоҳида ўтказилди.

Унда қизлар Ватан ҳақида шеър ўқиш ва кўшиқ айтиш, шунингдек, кўл иши ва тасвирий санъат йўналишларида беллашдилар.

Яқинда ғолиблар ва фаол иштирокчилар муносиб тақдирланди.

Сўнгра оромгоҳдаги мавжуд шароитлар ўргалар соғломлаштириш улларга тегишли тавсиялар берилди.

**Г.ТУРСУНОВА,**  
Республика ҳарбий прокурорининг катта ёрдамчиси, адлия подполковниги.

## “ЮК МАРКАЗИ” НИҚОБИДА

Судланувчи У.Зохиржонов фирибгарлик, яъни ўзганинг мол-мулкни алдаш ва ишончини суистеъмол қилиш йўли билан кўлга киритиш мақсадида, таниши Ш.Абуғаффоров билан олдиндан жиноий тил бириктирган. Улар 2023 йил май ойида интернет тармоғининг “телеграм” мессенжеридаги “YUK MARKAZI” деб номланган гуруҳдаги юк автомашинаси бор ҳайдовчиларга юк топиб беришда ёрдам беришлари ҳақидаги сохта эълонни жойлаштиришган. Эълон остига ўзларининг телефон рақамларини қолдирган. 31 май куни эълон бўйича кўнғироқ қилган фуқаро О.Алиевга Сергели тумани, Хонобод мавзесидаги омборхонадан “Pepsi” ичимлигини ортиб, Қашқадарё вилоятига етказиб бериши юзасидан уни рўйхатдан ўтказганликларини айтган. Юкни етказиб бериш учун юк эгаси томонидан 5.000.000 сўм пул берилишини ҳамда юк топиб берганликлари учун 500.000 сўм хизмат ҳақи беришини айтиб, алдашган.

Сохта эълон бўйича кўнғироқ қилган фуқаро Э.Таджибаева Хонобод мавзесидаги божхона омборхонасидан гранула кўринишидаги пластикни ортиб, Андижон вилоятига етказиб беришини айтган. Юкни етказиб бериш учун юк эгаси томонидан 3.900.000 сўм пул берилишини, у мазкур юкни ортиб олиб кетиш учун уни рўйхатдан ўтказганликлари ҳамда юк топишда ёрдам берганликлари учун 500.000 сўм хизмат ҳақи талаб қилганлар. Содда фуқаро айтилган пулни унинг банк пластик картасига ўтказган.

Шунингдек, У.Зохиржонов 17 июнь куни жойланган эълон бўйича кўнғироқ қилган фуқаро Ж.Жумаевага божхона омборхонасидан гранула кўринишидаги пластикни ортиб, Навоий вилоятига етказиб бериши учун ундан 4.600.000 сўм пул сўраган. У.Зохиржонов худди шундай “усул” билан ўнга яқин фуқарони алдаган.

Судланувчи У.Зохиржонов судда айбига тўлиқ иқроорлик билдириб, ўзи олдин юк автомашинаси ҳайдовчиларига юк топиб, логистик хизматини кўрсатиш билан шуғулланган Отабек исмли шахсга ёрдам берганлигини баён қилди. 2023 йил май ойида пулга муҳтож бўлиб, таниши Ш.Абуғаффоровга телеграм мессенжерида “YUK MARKAZI”, деб номланган гуруҳга кириб, у ерга юк борлиги тўғрисида эълон жойлаб, ҳайдовчилардан пул олиш мумкинлиги ҳақида айтган.

Суд У.Зохиржоновга Ўзбекистон Республикаси ЖК 168-моддаси 3-қисмининг “б” банди билан ойлик иш ҳақининг 15 фоиз миқдорини давлат даромади ҳисобига ушлаб қолган ҳолда 2 (икки) йил 6 (олти) ой ахлоқ тузатиш ишлари жазоси тайинлади.

Ш.Абуғаффоровга эса ойлик иш ҳақининг 15 фоиз миқдорини давлат даромади ҳисобига ушлаб қолган ҳолда 2 (икки) йил 6 (олти) ой ахлоқ тузатиш ишлари жазоси тайинланди.

**И.РАЖАБОВ,**  
Жиноят ишлари бўйича Янгиҳаёт туман судининг судьяси.



Paxtakor tumani FV bo'limi xodimlari tomonidan aholi yashash xonadonlarida o'tkazilgan targ'ibot-tashviqot tadbirlarida fuqarolarga kondisioner, ventilyator kabi ayni kunlarda eng ko'p foydalanilayotgan elektr uskunalarning tunu kun ishlatilishi qisqa tutashuv va yong'inlarga sabab bo'layotganligi, nosoz va qo'lbola uskunalaridan foydalanishga aslo yo'l qo'yib bo'lmasligi tushuntirildi.

## YONG'IN XAVFSIZLIGI

Tuman markazidagi qurilish obyektlaridagi profilaktik tadbirlar davomida esa ishchi-xodimlarga qurilish me'yoriy qoidalari va shaharsozlik norma qoidalari talablari aytib o'tildi. Qurilish ishlarida texnika va yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya etish lozimligi ta'kidlandi.

Shundan so'ng, profilaktik tadbirlar Paxtakor dehqon bozori hududida davom ettirilib, savdo do'konlari va fuqarolarga xizmat ko'rsatuvchi ovqatlanish shoxobchalarida tadbirkorlar bilan profilaktik suhbatlar o'tkazildi. Samarqand mahallasidagi 4-umumta'lim maktabida bolalar uchun tashkil etilgan oromgohda dam oluvchilarga yong'in xavfsizligi qoidalari bo'yicha yo'riqnomalar berildi.

**T.MAMADIYOROV,**  
Jizzax viloyati FVB YOPB boshlig'i,  
podpolkovnik.  
**I.TO'RAYEV,**  
Paxtakor tumani FV bo'limi boshlig'i,  
podpolkovnik.

## OROMGOHDA



Andijon viloyati Ulug'nor tumanidagi bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarida profilaktik tadbirlar tashkil etildi.

Unda bolajonlarga yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish, turli ko'ngilsiz hodisalarning oldini olish bo'yicha nazariy va amaliy tushunchalar berildi. Yong'in-qutqaruv qismida mavjud texnika va asbob-anjomlar to'g'risida ko'rgazmali namoyish o'tkazildi.

**M.TURSUNAHMADOV,**  
Ulug'nor tumani FV bo'limi  
bo'linma boshlig'i, kapitan.

## ZAVODDA "DOLZARB 30 KUN"



"Buxoro NQIZ" MChJ OYXTTEB xodimlari tomonidan favqulodda holat yoki yong'in sodir bo'lganda ishchilarning harakatlanishi, doimiy ravishda yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilishlari bo'yicha yo'riqnomalar o'tkazildi. Hududda mavjud yong'inga qarshi yeros-ti suv olgichlarining sozligi, zavod ishchi-xodimlariga yong'in xavfsizligi texnikalarining imkoniyatlari to'g'risida tushuntirishlar berildi.

**J.ABDUALIMOV,**  
BNQIZ OYXTTEB P va NB bo'yicha  
o'rinbosari, podpolkovnik.  
**O. ESHONOV,**  
BNIQZ OY XTTEB katta inspektori, kapitan.

## MAHORAT OSHIRILDI



Muborak NGQCHB OYXTTEB xodimlari tomonidan "Dolzarb 30 kun" tadbiri davomida obyekt rahbarlari, ishchi-xizmatchilarini jalb qilgan holda shartli sodir bo'lgan yong'inni o'chirish boyicha ko'rgazmali mashg'ulot o'tkazildi. Mashg'ulot yakunida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar muhokama qililib, 48 nafar obyekt ishchi-xizmatchilariga yong'inlarning oldini olish bo'yicha profilaktik targ'ibot amalga oshirildi.

**R.PO'LATOV,**  
Muborak NGQCHB OYXTTEB  
P va NB inspektori, kapitan.

## O'RGANISHLAR

Test sinovlari o'tkaziladigan Andijon shahridagi 9 ta binoning yong'in xavfsizligi holati o'rganib chiqildi. O'rganishlar davrida zaxira chiqish yo'llarining holatiga, birlamchi yong'in o'chirish vositalari bilan ta'minlanganligiga, binoning ichki va tashqi yong'inga qarshi suv ta'minotiga va yong'in xavfsizligi qoidalarini targ'ib qiluvchi eslatma va plakatlarni ta'minlanganligiga e'tibor qaralib, mavjud kamchiliklar bartaraf etildi.

Maskanlarda xavfsizlik va yong'in xavfsizligini ta'minlash maqsadida malakali mutaxassis va yong'in-qutqaruv texnikalari jalb etildi.

**O.QO'LDOSHEV,**  
Andijon viloyati FVB bo'lim boshlig'i,  
podpolkovnik.  
**A.YARKULOV,**  
Andijon shahar FV bo'limi boshlig'i  
o'rinbosari, kapitan.

## TABIATNI ASRAYLIK



Jizzax viloyati FVB hamda bir qator tashkilotlar hamkorligida "Zomin milliy tabiat bog'i"da profilaktik tadbirlar va yong'in o'chirish maxsus-taktik o'quv mashg'ulotlari tashkil etildi.

O'quv mashqi davomida kuch va vositalarning tayyorgarligini oshirish, favqulodda vaziyatlar davlat tizimi xizmatlari va fuqaro muhofazasi tuzilmalarining o'rmon yong'inlari bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish, jarohatlanganlarni qidirish, qutqarish va birinchi yordam ko'rsatish, sodir bo'lgan o'rmon yong'inlarini bartaraf etishdagi hamkorlikdagi harakatlari sinovdan o'tkazildi.

**S.SHUKUROV,**  
Jizzax viloyati FVB boshlig'ining birinchi  
o'rinbosari – Shtab boshlig'i, podpolkovnik.  
**I.UMAROV,**  
boshqarma axborot xizmati rahbari, kapitan.

Navoiy viloyati ishlab chiqarishda yirik korxonalariga ega viloyatlardan hisoblanadi. Ayniqsa, minglab ishchi-xizmatchilarga ega bo'lgan "NKMK" AJ, "Navoiyuran" DK va "NKMK jam'armasi" kabi yirik quvvatda ishlovchi korxonalar mana bir necha yillardan buyon respublikamizning yuksalishiga va ravnaq to'pishiga ulkan hissa qo'shib kelmoqda.

## MULOHAZA

NKMK Kon boshqarmalarining sanoat maydonlarida qurilayotgan, rekonstruksiya qilinayotgan obyektlarning yong'in xavfsizligi holatini o'rnatilgan tartibda nazorat qilish maqsadida barcha qurilish maskanlarida nazorat tekshiruvlari o'tkazilmoqda. Tekshiruvlar yakuni bo'yicha 129 ta banddan iborat DYON yozma ko'rsatmalari obyekt rahbarlariga taqdim etilib borilmoqda.

"Turbay" konida 16-yong'in qutqaruv qismi, Nurato tumani Qizilcha qishlog'ida joylashgan "Pistali" koni obyektlarini muhofaza qiluvchi 15-yong'in qutqaruv qismi hamda MKBga qarashli "Tamdibuloq" va "Balpantau" konlarini muhofaza qiluvchi yong'in-qutqaruv postlari tashkillashtirilib, bugungi kunda o'z faoliyatlarini olib bormoqda.

**N.UZOQOV, "NKMK" AJ va "Navoiyuran"**  
Davlat korxonasi obyektlarida yong'in  
xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish markazi  
guruh boshlig'i, podpolkovnik.  
**M.HAYITOV,** markaz kichik inspektori,  
katta serjant.

## TASHVIQOT

Yong'in kelib chiqish sabablari tahlil qilinganda, aksariyat holatlarda aholi yashash joylaridagi yong'inlar gaz, elektr isitish moslamalaridan foydalanishda texnika, yong'in va elektr xavfsizligi qoidalariga rioya etilmasligi oqibatida kelib chiqayotgani ma'lum bo'lmoqda. Shu bois, aholining yong'in, is gazidan zaharlanish, gaz-havo aralashmasining chaqnashi bilan bog'liq ko'ngilsiz hodisalarning oldini olish, birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish va to'g'ri harakat qilish tartibi bo'yicha bilimlarini oshirib borish juda muhim hisoblanadi.

**A.QURALOV,**  
O'z MTRK OYXTTEB kichik inspektori,  
katta serjant.

## TASHABBUS

Yoz faslining issiq mavsumini betalafot o'tkazishlari eng avvalo, yong'inlar bilan bog'liq vaziyatlarning oldini olish borasidagi ishlar bilan yanada jadallashtirilmoqda. Ayniqsa, o'ta muhim va davlat ahamiyatiga molik, yong'in va portlash xavfi yuqori obyektlarda yong'in xavfsizligini mustahkamlash, ularning rahbarlari bilan yong'in-taktik o'quv mashg'ulotlari, tushuntirish ishlarini tashkil etish eng samarali ishlar sirasiga kiradi. Yong'inlarning oldini olishga qaratilgan targ'ibot va aholi orasida tushuntirish ishlarini tashkillashtirishga FVV hamda boshqa vazirlik va idoralar hamda keng jamoatchilik safarbar etilmoqda.

**A.YAKUBAYEV,**  
Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma'rifiy  
yodgorlik majmuasi kichik inspektori, kichik  
serjant.

## AEROPORTDA SINOV

"Buxoro xalqaro aeroporti" MChJ qutqaruv xizmati bilan hamkorlikda "Aeroport hududida favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda FVDT xizmatlari bilan hamkorlikda xavfni bartaraf etish tadbirlari" mavzusida amaliy mashg'ulot o'tkazildi. O'quv mashqlari davomida "A-320" havo kemasi bortida yong'in sodir bo'lgan. Yong'inni zudlik bilan bartaraf etish, fuqarolarni evakuatsiya qilish, jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish tadbirlari amalga oshirildi. Boshqarma xodimlari tomonidan aeroport qutqaruv xizmati jangovar holati o'rganildi va xodimlarga kerakli tushunchalar berib o'tildi.

**H.SAIDOV,**  
Buxoro viloyati FVB  
OBYOXTTEB inspektori, kapitan.



## NEGA AYNAN YOZ FASLIDA?

Yer yuzidagi global isish insoniyatni xavfsizligiga va farovonligiga jiddiy tahdid solmoqda, ayniqsa, ayrim davlatlarda o'rmon yong'inlari ortib bormoqda. Bunday holatlar nafaqat ekologik siyosatni o'zgartirish, resurslardan barqaror foydalanish, balki yong'in xavfsizligiga jiddiy yondashishni ham talab qiladi. Yong'indan himoya qilishning asosiy elementi, yong'inlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish rejalarini ishlab chiqish hamda muntazam rejalarini yangilab borishdan iborat. Global isish bilan bu rejalarini o'zgaruvchan iqlim sharoitlariga va yong'in xavfi ortishi bilan bog'liq vaziyatlarga moslashtirish muhimdir.

Qurilish me'yorlarida ko'rsatilgan barcha talablar, qurilayotgan inshootlarning yong'inga chidamliligi bo'yicha barcha talablarga mos kelishi kerak. Bu yong'in tarqalishini sekinlashtirishga va yong'in sodir bo'lishi mumkin bo'lgan zarar va qurbonlarni kamaytirishga yordam beradi. Zamonaviy monitoring tizimlarining rivojlanishi yong'in boshlanganini tezda aniqlash va tezda javob berish imkonini beradi. Bu jarayonda masofaviy zondlash texnologiyalari va sun'iy yo'ldosh monitoringi muhim o'rin tutadi.

**Z.QURBONOV,**  
Toshkent shahar FVB  
axborot xizmati boshlig'i,  
mayor.

## SOHAVIY SUHBATLAR

"Dolzarb 30 kun" oyligi doirasida Namangan viloyati Norin tumanidagi ijtimoiy soha obyektlari, tadbirkorlik subyektlari, avto turargohlarda fuqarolarni yong'in sodir bo'lganda harakatga tayyorlash yuzasidan davra suhbatlari, shuningdek, favqulodda vaziyatlar va yong'in sodir bo'lganda odamlarni evakuatsiya qilish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazilmoqda.

Fuqarolarga yong'in xavfsizligi qoida va talablariga rioya qilish, yong'in o'chirish vositalaridan to'g'ri foydalanish haqida tushunchalar berilib, favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda yong'in-qutqaruv xizmati, tez tibbiy yordam, elektr, gaz va boshqa ko'plab xizmatlarning qisqa raqamlari eslatib o'tilmoqda.

**D.MURODOV,**  
Norin tumani FV bo'limi P va NB  
kichik inspektori, kichik serjant.

## TASHVIQOT

**Yong'inlarning atrof-muhitga va inson salomatligiga salbiy ta'siri, eng avvalo, yong'inlar natijasida ifloslantiruvchi moddalar – zaharli moddalarning ajalib chiqishi bilan bog'liq.**

Tashkil etilayotgan targ'ibot tadbirlari davomida yong'inni keltirib chiqaruvchi holatlardan ehtiyot bo'lish, nosoz elektr moslamalaridan foydalanmaslik borasida muhim fikrlar bayon etilmoqda, birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish tartibi o'rgatilmoqda.

Qolaversa, tegishli xizmatlar bilan hamkorlikda aholi yashash xonadonlarida uyuma-uy yurib, profilaktik tadbirlar o'tkazildi, fuqarolarga elektr va gaz uskunalaridan foydalanishda ularning sozligiga, birinchi galda, sovetish konditsionerlari va shu kabi boshqa maishiy elektr jihozlardan foydalanishda yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy amal qilishga e'tibor qaratilishi lozimligi tushuntirilmogda.

**Sh. MUSAYEV,**  
Toshkent shahar FVB kichik  
inspektori,  
kichik serjant.



## QO'MONDONLIK - SHTAB O'QUV MASHQI

Namangan, Farg'ona va Andijon viloyatlari quyi tizimi boshqaruv organlari, kuch va vositalari bilan hamkorlikdagi qo'mondonlik-shtab o'quv mashqlari o'tkazildi.

O'quv mashqi boshqaruv shtabi tomonidan olingan signallar asosida viloyat aloqa va xabar berish xizmati tomonidan 54 ta xizmat, korxon va tashkilotlarga yetkazildi. Belgilangan shaxsiy tarkib yig'in joyiga to'liq yig'ildi. Reja bo'yicha o'quv mashqi g'oyasi, tezkor-taktik vazifa o'qib eshittirildi. Yig'ilishda Andijon viloyati favqulodda vaziyatlarining oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish xizmatlarining 225 nafar rahbarlari va respublikadan birlashtirilgan vakillar ishtirok etdi. Andijondagi "Navoiy" nomli bog'da viloyat hokimi – fuqaro muhofazasi boshlig'ining harakatdagi boshqaruv maskani yoyilib, dala chodirlari jihozlandi.

Viloyat hokimligi FVDT xizmatlari navbatchiligi tashkil etildi. Har bir mas'ul rahbar va xodimlarga tegishli ko'rsatma va topshiriqlar berildi. Viloyat FVDT xizmat-

lari o'rtasida o'zaro hamkorlik va aloqa almashinuvi yo'lga qo'yildi. "UzAvtoMotors", "Andijon radio-teleuzatish" markazi, "Andijon don mahsulotlari" AJ, "Kuygan-yor" gidrouzeli, "Kampirrovot" suv tozalash inshootida, "Andijon suv ta'minoti" AJ "Xo'jaobod gazni yerostida saqlash ombori"da, Farg'ona magistral gaz quvurlari boshqarmasi Xo'jaobod ta'mirlash ekspluatatsiya punktida, "Hudud-gaz Andijon" gaz ta'minoti filiali, "Andijon magistral elektr tarmoqlari" ga qarashli "Lochin-500" podstansiyasida va "Andijon magistral elektr tarmoqlari"ga qarashli "Xakan" nimstansiya, "Andijon hududiy elektr tarmoqlari" AJ, "Andijon neft bazasi" MCHJ Gurunch mozor filiali, "Ko'mir ta'minoti" MCHJ hamda "Issiqlik manbai" DUKda maxsus-taktik o'quv mashqlari tashkil etildi.

**H. RAHIMOV,**  
Andijon viloyati FVB  
axborot xizmati boshlig'i,  
kapitan.

**R. ROZABOYEVA, UzJOKU**  
harbiy jurnalistika yo'nalishi  
talabasi.

## MUHIM JARAYON

Qarshi shahridagi "RISE OIL TERMINAL" neft saqlashga mo'ljallangan korxonada yong'in-o'chirish amaliy mashg'uloti o'tkazildi. Mashg'ulot davomida neft saqlash sig'imlarida yuzaga kelgan nosozlik natijasida korxonada tezkor xizmatlarining favqulodda vaziyatlarga qay darajada tayyor ekanliklari, korxonada ishchilarining bunday vaziyatlarda harakatlari sinovdan o'tkazilgan bo'lsa, shartli ravishda sodir bo'lgan yong'inni bartaraf etish, tezkor xizmatlarga xabar berish va ogohlantirish, kuch-vositalarni to'g'ri yo'naltirish, jabrlanganlarni xavfsiz hududga olib chiqish va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish harakatlari amaliy tarzda ko'rsatib o'tildi.

Joylardagi yonish va portlash xavfi yuqori obyekt binolarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'lim mas'ullari tomonidan turli noxushliklarning oldini olishga qaratilgan qator profilaktik tadbirlar amalga oshirilmoqda.

**N.NURMATOV,** Qashqadaryo viloyati FVB tezkor boshqaruv  
markazi boshlig'i, podpolkovnik.  
**U.JURAYEV,** boshqarma SHGKM OYXTTB boshlig'i,  
podpolkovnik.

## YO'LINGIZ BEXATAR BO'LSIN

Turmushimizda sodir bo'layotgan yong'inlarning aksariyati aholi turar-joylariga to'g'ri keladi. Lekin poytaxtimiz ko'chalarida avtoulavlar ko'paygan sari, ularning yonishi ham kuzatilmoqda. Yo'ldagi to'qnashuv oqibatimi, avtoulodda mavjud bo'lgan nosozliklar tufaylimi, ko'p yillik mehnat natijasida sotib olingan temir yordamchidan bir zumda ayrilib qolish holatlari uchrab turibdi.

Transport vositalari bilan bog'liq bo'lgan yong'inlar asosan

elektr simlarining qisqa tutashuvi yoki yonilg'i tizimidagi nosozliklar tufayli kelib chiqadi. Xo'sh, bu nosozliklarning sababi nimada? Birinchisi, avtomobildagi o'sha qismlarning eskirganligi bo'lsa, ikkinchisi, fuqarolarning beparvoligi va loqaydligidir.

**Z.ALIXODJAYEV,**  
Toshkent shahar FVB  
MTTB bosh inspektori, mayor.  
**U.Usmonov,** kichik  
inspektor, kichik serjant.

## ISSIQ URISHIDAN SAQLANING!

Yozning issiq pallasida ovqatlanishga e'tiborli bo'lib, qovurilgan, yog'li, achchiq, nor-don, dudlangan, konservalangan ovqatlarni iste'mol qilishdan ko'ra, suyuq, qaynatilgan, bug'da pishirilgan ovqatlarni iste'mol qilish maqsadga muvofiqdir.

Oftob va issiq urmasligi uchun nimalarga e'tibor qaratish lozim?

- Kiyim tabiiy matodan, kengroq qilib tikilgan bo'lishi kerak;
- bosh kiyim kiyish kerak;
- quyosh nuri tik tushib turgan vaqtda ochiq havoda kamroq bo'lish, soya-salqin joylarda yurish kerak;
- jismoniy faollik bilan shug'ullanishni esa ertalabki yoki kechki soatlarda o'tkazgan ma'qul.

**X.AZIMOV,**  
FMI katta o'qituvchisi.

## MASHG'ULOT

"Hisorak" suv omborida maxsus-taktik o'quv mashqi bo'lib o'tdi.

Ushbu mashq rejasiga ko'ra, shartli zilziladan so'ng obyekt hududida sodir bo'lgan avariya va yong'in oqibatlariga kirishildi. Yong'in haqida dastlabki ma'lumotlarni barcha tezkor xizmatlarga xabar berish va ogohlantirish, so'ngra sodir bo'lgan shartli yong'inni bartaraf etish uchun jalb qilinadigan kuch-vositalarni to'g'ri yo'naltirish, jabrlanganlarni xavfsiz hududga olib chiqish va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish harakatlari amaliy tarzda ko'rsatib o'tildi.

Hozirgi yoz mavsumida eng ko'p uchrab turadigan favqulodda vaziyatlardan biri, insonlarni ta'qiqlangan joylarda cho'milishi ortidan kuzatilayotganligi juda achinarli.

**F.MIRZAYEV,**  
Qashqadaryo viloyati FVB  
boshlig'i, polkovnik.

## AMALIY ISHLAR

NKMK YXTB va quyi tizimlari tomonidan muhofaza qilinayotgan Navoiy kon-metallurgiya kombinati sanoat maydonlarida ham bir qancha yangi qurilishlar va rekonstruksiya ishlari amalga oshirilib kelinmoqda.

**H. YAXYAYEV, ShKB OYXTTEB**  
inspektori, oddiy askar.  
**I.QILICHEV,** bo'lim inspektori,  
oddiy askar.

## OFATDAN SAQLANING!

Respublikamiz hududida 6 oy mobaynida sodir bo'lgan yong'inlarning kelib chiqish sabablari bo'yicha:

- elektr uskunalaridan noto'g'ri foydalanish oqibatida 1959 ta;
- olovdan ehtiyotsizlik oqibatida 1101 ta;
- bolalar sho'xligi oqibatida 380 ta;
- isitish pechlarini hamda dudburonlarining nosozligi tufayli 612 ta yong'inlar sodir bo'lgan.

"Dolzarb 30 kun" tadbiri davomida qamrab olinadigan asosiy yo'nalishlar quyidagilar hisoblanadi:

- yozgi dam olish va sog'lomlashtirish mavsumida yong'in xavfsizligini ta'minlash;
- iqtisodiy ahamiyatga ega va favqulodda vaziyat yuz berish darajasi yuqori bo'lgan, shuningdek, odamlar ommaviy bo'ladigan obyektlarda yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta'minlash.

**B.Muhitdinov,** FV va YOX ITI bo'lim  
boshlig'i, mayor.  
**Z.Buvaraimov,** FV va YOX ITI bo'lim  
boshlig'i, kapitan.



## “101” XABAR QILADI

Oddiy beparvolik va loqaydlik sababli kelib chiqayotgan har bir yong'in insonlarning hayotiga, ularning yaqinlariga xavf-xatar solishi va ko'p mashaqqatlar evaziga bunyod etilgan uy-joylarini, yillab to'plagan mol-mulklarini bir zumda yonib ketishiga olib keladi. Bunday holatlarning oldini olish uchun doimo turar-joy binolari atroflarini o'z vaqtida tozalang va ozoda tuting. Axlax va maishiy chiqindilarni maxsus ajratilgan joyga tashlang. Gaz va elektr uskunalarni qoidalarga rioya qilgan holatda ishlating. Farzandlaringizni yolg'iz nazoratsiz qoldirmang. Sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'in va ko'ngilsizliklarning oldini olish o'z qo'lingizda. Buning uchun barcha yong'in xavfsizligi qoidalarga to'liq rioya qiling!

**R.G'ULOMOV,**  
Toshkent shahar FVB kichik inspektori, 1-darajali serjant.



## DOVONDA

“Qamchiq” dovoni hududidagi avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalarida amaliy-taktik o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi. Mashq davomida ishchi-xodimlarga yong'in xavfsizligi qoidalari va yong'in vaqtida harakatlanish tartibi eslatib o'tildi.

Shuningdek, yoqilg'i quyish vaqtida insonlar hamda avtomobillarni xavfsizligini ta'minlash qoidalari tushuntirildi.

**B.ANORQULOV,**  
“Qamchiq” MQYQB otryad komandiri, mayor.

## HAMKORLIKDA



Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumani hududidagi “To'rtko'l savdo kompleksi” MCHJda yong'in o'chirish amaliy-taktik o'quv mashqi bo'lib o'tdi.

“Favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda obyekt rahbariyati, qutqaruv tuzilmalari hamda FVDT xizmatlarining hamkorlikdagi harakatlari” mavzusida tashkil etilgan mazkur mashq davomida savdo do'konlarining birida elektr toki simlarining qisqa tutashuvi natijasida sodir bo'lgan yong'inni tuman FV bo'limi va hamkorlikdagi tashkilotlar tomonidan barataraf etish bo'yicha harakatlar hamda vayronalar ostida qolgan fuqarolarni qutqarish, xavfsiz hududlarga evakuatsiya qilish, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish harakatlari kuzatildi.

**S.QURBONBAYEV,**  
To'rtko'l tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari, mayor.



## PROFILAKTIKA

Qibray tumani “Soft vitamin biznes” MCHJ ishchi-xizmatchilari ishtirokida profilaktika tadbiri o'tkazildi.

Unda yong'in, uning oqibatlari, kelib chiqish sabablari va cho'kish holatlari bo'yicha tushuntirishlar berildi. Tadbir so'ngida ishtirokchilar tomonidan

berilgan savollarga javob qaytarildi.

**I.JAZDANKULOV,**  
Toshkent viloyati Qibray tumani OYXTTEB P va NB inspektori, katta leytenant.

## DOLZARB MASALA

Surxondaryo viloyati FVB va uning quyi tizimi tomonidan 2024-yilda ruxsat etilmagan joylarda cho'milish bilan bog'liq baxtsiz hodisalarning oldini olish yuzasidan 628 marotaba reydtadbirlar o'tkazildi va 1 266 dona “Cho'milish taqiqlanadi” ogohtiruvchi plakat o'rnatildi.

Shuningdek, fuqarolarning, ayniqsa, voyaga yetmagan yoshlarning cho'milish taqiqlangan turli suv havzalarida, kanallar, soylar

va zovurlarda cho'kib ketishi bilan bog'liq baxtsiz holatlarning oldini olish maqsadida, 958 marotaba aholi bilan suhbatlar o'tkazildi.

**F.SHAYMARDANOV,**  
Surxondaryo viloyati FVB axborot xizmati yetakchi mutaxassisi.

**Sh.JUMAYEV,**  
boshqarma xizmat boshlig'i, mayor.

## TAKTIK MASHQ

FVV o'ta muhim va toifalangan obyektlarda Yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish boshqarmasi, “Lukoil Uzbekistan opereyting kompani” MCHJ Buxoro viloyati obyektlarining yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'limi harbiy xizmatchilari hamda boshqa tezkor xizmatlar bilan hamkorlikda LUOK MCHJ Qandim gazni qayta ishlash zavodida yong'in o'chirish amaliy-taktik mashqi o'tkazildi.

Ushbu o'quv mashqi davomida maskan ma'muriyati tomonidan favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda tezkor tadbirlarni amalga oshirishdagi amaliy harakatlarini rivojlantirish, yong'in o'chirish imkoniyatini oshirish, kuchaytirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratildi.

**Q.QUDRATOV,**  
“LUOK” MCHJ OYOXTTEM Buxoro viloyatidagi bo'lim tezkor navbatchisi, podpolkovnik.

## NUKUSDA TADBIRLAR

Nukus tumani FV bo'limi xodimlari tomonidan tuman hududidagi yong'in xavfi yuqori bo'lgan bozorlar, avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobcharalari, o'rmonlarda va odamlar ommaviy yig'iladigan obyektlarida, yoz oylarida yong'in xavfning oldini olishda, shuningdek, tuman hududidan o'tuvchi daryo, ariqlar va ko'llarda cho'milish qoidalarga amal qilish bo'yicha keng tushuntirish ishlari olib borildi. Shuningdek, isitish pechlari va gaz moslamalaridan foydalanish qoidalari, gaz va havo aralashmasining chaqnashi, fuqarolarning is gazidan zaharlanishi va boshqa noxush holatlarning oldini olishga qaratilgan fikrlar bayon etildi.



**A.BEKMURATOV,**  
Nukus tumani FV bo'limi boshlig'i, podpolkovnik.

## QURILISH OBYEKTIDA

Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli tumani FV bo'limi tomonidan qurilish ishlari olib borilayotgan tumanning “Jana jap” ovul fuqarolar yig'ini hududidagi qurilish ishlari olib borilayotgan maktabgacha ta'lim tashkiloti binosini qurish ishlarini amalga oshirayotgan “NOKIS ISKER” MChJ quruvchilari bilan yong'inlarning oldini olish bo'yicha profilaktika ishlari olib borilib, xavfsizlik qoidalarga amal qilish bo'yicha tushuntirishlar o'tkazildi.

Shuningdek, yangi binoning loyiha-smeta hujjatlariga kiritilgan tashqi yer usti suv olish gidranlari, ichki yong'in o'chirish jo'mraklari, tutundan va issiqlikdan avtomatik xabar berish qurilmalari va boshqa yong'inlarning oldini olishga qaratilgan tadbirlarning qurilish davomida bajarilish holati o'rganilib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflar berildi.

**A.KAZAXBAYEV,**  
Xo'jayli tumani FV bo'limi katta inspektori, kapitan.

## UCHRASHUV

Ohangaron tumani “O'zbekiston temir yo'llari” AJ BYXTTE bo'linmasida “Yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha dolzarb 30 kunlik” tadbirlari munosabati bilan yig'ilish o'tkazildi.

Tadbirda BYXTTE bo'linmasi boshlig'i podpolkovnik U.Shermurotov so'zga chiqib, hozirgi kunda respublikamizda sodir bo'layotgan yong'inlar va ularning oqibatlari, favqulodda vaziyatlar va yong'in xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq chora-tadbirlar to'g'risida so'z yuritdi. Shundan so'ng tuman hududidagi mahallalarda yashovchi oilalar tinchligiga barcha idoralar mas'ul ekanligini aytib, buning uchun hamkorlikdagi ishlarni kuchaytirish, ishchi guruhlar tuzish, tashkil etilgan ishchi guruhi a'zolari mahallalardagi xonadonlarga kirib, yong'in xavfsizligi bo'yicha mavjud muammolarni aniqlab, bartaraf etish choralari ko'rish zarurligini tushuntirdi.

**U.SHERMURATOV,**  
Ohangaron tumani “O'zbekiston temir yo'llari” AJ BYXTTE bo'linmasi boshlig'i, podpolkovnik.  
**Z.ESHNAZAROV,**  
bo'linma katta inspektori, katta leytenant.

## MASHQ

Toshkent shahar Yangihayot tumanida joylashgan “O'zmetkombinat” AJga qarashli “Toshkent shahar ikkilamchi qora metall” filialida Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi xodimlari rahbarligida, maxsus vazifalar bo'yicha respublika qutqaruv markazining markaziy kimyo-radiometrik laboratoriyasi, RKvaTBM otryadi va hamkorlikdagi tashkilotlar bilan birgalikda obyekt fuqaro muhofazasi tuzilmalari harakatlari mavzusida maxsus-taktik o'quv mashg'uloti o'tkazildi.

O'tkazilgan maxsus-taktik o'quv mashqida maqsad va vazifalarga erishildi. O'rganuvchilar o'zlarining amaliy va nazariy malakalarini oshirdilar. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha mahalliy boshqaruv organlari hamda FVDT kuch va vositalarining hamkorlikdagi harakatlari takomillashtirildi.

**N.NOMONJONOV,**  
Toshkent shahar FVB bo'lim bosh inspektori, leytenant.



## PROFILAKTIKA

Chinoz tumani FV bo'limi va bir qator tashkilotlar hamkorligida odamlar ommaviy yig'iladigan obyektlarda, bozor, savdo komplekslarida tushuntirish va targ'ibot tadbirlari amalga oshirilmoqda

Profilaktik tadbirlar davomida tadbirkorlar va fuqarolarga yurtimizda oxirgi yillarda sodir bo'layotgan yong'inlarning kelib chiqish sabablari hamda moddiy zararlarini to'g'risida tushunchalar berildi. Yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilishlari borasida eslatmalar tarqatildi.

**A.QO'SHAQOV,**  
Chinoz tumani FV bo'limi boshlig'i  
o'rinbosari, mayor.



## TARG'IBOT

Urganch shahar FV bo'limi va tegishli idora va tashkilotlar xodimlari tomonidan "Dolzarb 30 kun" tadbiri doirasida 10 xilda plakat va eslatmalar ishlab chiqildi. Bozorlar, yoqilg'i quyish shoxobchalari, korxonalar va tashkilotlarda mavzuga oid bannerlar o'rnatildi.



Favqulodda vaziyat va yong'inlarning oldini olish, ularning oqibatlarini tushuntirish maqsadida 75 ta korxonalar va tashkilotlarda, 29 ta mahallada, 3 ta bozorda, yirik savdo majmualari ishchi-xizmatchilari bilan uchrashuvlar o'tkazildi.

**E.ERNAZAROV,**  
Urganch shahar FV bo'limi boshlig'i  
o'rinbosari, leytenant.

## TAVSIYA

Xodimlar tomonidan hamkor tashkilotlar hamda jamoatchilik vakillari bilan birgalikda shahardagi mahalla fuqarolar yig'inlari hududlarida tushuntirish va targ'ibot tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan taqdirda qanday tezkor harakat qilish, tizimga kiruvchi barcha sohalar faoliyatini muvofiqlashtirish, qo'mondonlik-shtab o'quv mashqlari o'tkazil-

layotgan hududlarda tashkil etiladigan shartli yong'in, avariya va evakuatsiya tadbirlari to'g'risida tushunchalar berilmoqda. Shuningdek, yong'in-qutqaruv texnika vositalari namoyish etilib, tadbirlarda qatnashayotgan aholi vakillari xavfsizlik talablariga rioya etish borasidagi eslatma va yo'riqnomalar bilan tanishtirilmoqda.

**M.ZIKIROV,**  
Toshkent shahar FVB  
kichik inspektori, kichik  
serjant.



## ESLATMA

Bektemir tumani FV bo'limi xodimlari tomonidan tuman hududida joylashgan "Jasmin Alex" MCHJ ishchi-xodimlari ishtirokida profilaktik tadbir tashkil etildi.

Tadbirda mamlakatimizda fuqaro muhofazasini kuchaytirish, favqulodda vaziyatlar davlat tashkilotlari tizimiga kiruvchi muassasalarning favqulodda vaziyatlarda harakatlanishga shayligini, bu boradagi bilim, malaka va ko'nikmalarini oshirish borasida keng ko'lami ishlar olib borilayotganligi ta'kidlandi.

Fuqarolarga elektr va gaz uskunalaridan foydalanishda ularning sozligiga, birinchi galda,

sovitish konditsionerlari va shu kabi boshqa maishiy elektr jihozlardan foydalanishda yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy amal qilish zarurligi uqtirildi. Yong'in-qutqaruv texnikalari va vositalari namoyish etildi. Yong'in xavfsizligi qoidalarini talablarini targ'ib qiluvchi eslatma, yo'riqnomalar va plakatlar tarqatildi.

**D.KENJABAYEV,**  
Bektemir tumani FV  
bo'limi P va NB katta  
inspektori, mayor.  
**Sh.HIKMATOV,**  
Toshkent shahar  
FVB kadrlar bo'limi bosh  
inspektori, kapitan.

## BOJXONA OMBORIDA

Bugungi kunda Toshkent shahrida joylashgan yonish va portlash xavfi yuqori bo'lgan kimyoviy moddalar bilan faoliyat olib boruvchi tadbirkorlik subyektlarida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlar harakat qilish hamda FVDT tizimlari bilan hamkorlikda mashg'ulotlar olib borishmoqda.

Bunda asosan, obyekt darajasida maxsus-taktik o'quv mashqlari o'tkazib kelinmoqda. Ana shunday tadbirlardan biri Chilonzor tumanidagi "Atlas

invest" MCHJda bo'ldi. O'quv mashqi davomida korxonalar ishchi-xodimlari favqulodda vaziyat yuzaga kelganda FVDT tashkilotlari yetib kelguniga qadar o'zlari tomonidan bajarilishi zarur bo'lgan vazifalarni amalda bajarishdi.

**E.ABDUG'OPUROV,**  
FVV FMI magistranti, katta  
leytenant.  
**S.NABIJONOV,**  
Toshkent shahar FVB  
bo'linma boshlig'i, katta  
leytenant.

## OGOHO BO'LING!

Yoz faslining boshlanishi bilan suvda cho'milishga bo'lgan ehtiyoji oshib boradi. Yozning issiq kunlarida kattayu kichik fuqarolarning suv havzalarida cho'milish kuzatiladi, ammo belgilanmagan va taqiqlangan joylarda cho'milmaslik hamda yosh bolalarni suv bo'yida nazoratsiz qoldirmaslik zarur.

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali belgilanmagan suv havzalrida cho'milish oqibatida

fuqarolarning, ayniqsa voyaga yetmagan yosh bolalarning suvda cho'kib vafot etayotganligini ko'rish mumkin. Bunday holatlarning aksariyati ehtiyotsizlik oqibatida yuzaga kelmoqda. Eng achinarlisi, yosh bolalarning erta hayotni tark etishi kuzatilmoqda.

**J.RAHIMOV,**  
Toshkent shahar FVB  
tabiiy va texnogen xususiyatli  
favqulodda vaziyatlar bo'limi  
bosh inspektori, kapitan.

## OYLIK DOIRASIDA

Toshkent shahar FVB xodimlari tomonidan bir qator tashkilotlarda, muassasalarda yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha targ'ibot tadbirlari tashkil etilmoqda. Mehnat muhofazasi, xavfsizlik texnikasi, sanoat, yong'in xavfsizligi talablariga rioya etilishi, obyektlarning birlamchi yong'in o'chirish vositalari bilan ta'minlanishi, avtomatik yong'in o'chirish va yong'indan avtomatik darak berish tizim va moslamalari, sig'imlarni suv bilan sovitish va ko'pik bilan o'chirish qurilmalari, yong'inga qarshi suv ta'minoti tizimlari, o't o'chirish vositalarining butligi va sozligi tekshiruvdan o'tkazilmoqda.

Amaliy mashg'ulotlar davomida esa ixtisoslashgan xizmat xodimlari va majmua ishchi-xizmatchilaridan iborat qutqaruvchilarga shartli ravishda yuzaga kelgan yong'inni bartaraf etish vazifasi topshirilmoqda. Sodir bo'lgan shartli tabiiy va texnogen vaziyatni bartaraf etish uchun jalb qilinadigan kuch-vositalarini to'g'ri yo'naltirish, jabrlanganlarni xavfsiz hududga olib chiqish va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish ko'nikmalari sinovdan o'tkazilmoqda.

**Z.IBATOV,**  
Toshkent shahar FVB  
axborot-tahlil va ijro intizomi bo'limi  
boshlig'i,  
podpolkovnik.

Keyingi vaqtlarda katta-kichik yong'inlarning tez-tez kuzatilayotganligi sababli hududlarda yong'in xavfsizligini ta'minlashga yanada jiddiy e'tibor berilib, ehtiyotkorlik chora-tadbirlari ko'rilmoqda. Chunki mamlakatimizda yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha boy tajriba to'plangan. Ushbu yo'nalishdagi tuzilmalar faoliyati izchil yo'lga qo'yilib, soha qonunchiligi zamon talablariga mos ravishda takomillashtirilmoqda.

## ZAMON TALABIGA MOS

Yong'in xavfsizligi xizmati hamda davlat va jamoat tashkilotlari, korxonalar va xo'jaliklarning shu yo'nalishdagi mas'uliyati kuchaytirilmoqda. Fuqarolarga sodir bo'lgan favqulodda vaziyatlar va yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish, fuqarolarning is gazidan zaharlantirishning oldini olish, yosh bolalarni nazoratsiz qoldirmaslik, elektr manbasidan belgilangan talablar asosida foydalanish zarurligi yuzasidan tushuntirishlar berilmoqda. Savdo do'konlari va maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalarida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlarga yong'in xavfsizligi qoida-talablariga to'liq rioya qilish zarurligi tushuntirilmoqda.

**G.ABDULLAYEVA,**  
FVV favqulodda vaziyatlar  
muammolari va yong'in xavfsizligi ilmiy-  
tadqiqot instituti bo'lim katta texnigi,  
kichik serjant.

## TA'QIQLANGAN JOYDA CHO'MILMANG!

Dam oluvchilarning aksariyati taqiqlangan havzalarda cho'milishga harakat qilishadi. Jumladan, oqar suv - daryolar, kanallar, ariqlarda cho'milish taqiqlanadi. Chunki oqar suvlar xavfli bo'lib, har daqiqada suv ostida turli xar-sang toshlar yoki qurilish chiqindilari oqib kelgan bo'lishi mumkin. Shu sababli, mazkur suvlarga sho'ng'ish pay-

tida boshi yoxud tanasi suv ostidagi qattiq jismlar bilan shikastlanish holatlari tez-tez uchrab turadi.

Shuningdek, oftobda tanangiz qizib turgan holatda ham suvga tusha ko'rmang. Negaki, qizib turgan tana sovuq suvga tushishi bilan barcha hujayralar ishga kirishadi. Mutaxassislar fikricha, qizib turgan asab tolalari

sovuq suvga tushishi bilan tortishib qoladi. Ushbu holatda qo'l va oyoqlar harakatsiz holga kelar ekan.

**S.KASIMXODJAYEV,**  
Islom Karimov  
nomidagi ilmiy-ma'rifiy  
yodgorlik majmuasi  
YXTTEB katta inspektori,  
podpolkovnik.



Маърифат соати

# “ЎЗБЕКИСТОН–2030” СТРАТЕГИЯСИНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ

Янгиланган конституциявий-ҳуқуқий шароитлар мамлакатимиз тараққиётининг асосий йўналишларини такомиллаштириш ва амалга ошириладиган кенг кўламли ислохотларни янги босқичга олиб чиқишни тақозо этди. Шу муносабат билан халқимизнинг эркин ва фаровон, қудратли Янги Ўзбекистонни барпо этиш бўйича хоҳиш-иродасини рўёбга чиқариш, ҳар бир фуқарога ўз салоҳиятини ривожлантириш учун барча имкониятларни яратиш, адолат, қонун устуворлиги, хавфсизлик ва барқарорликни кафолатли таъминлаш мақсадида, Президентимизнинг 2023 йил 11 сентябрдаги фармони билан “Ўзбекистон – 2030” стратегияси тасдиқланди.

Мазкур ҳужжат келгуси 7 йилда Ўзбекистоннинг асосий ривожланиш йўналишларини белгилаб берувчи муҳим ҳужжат ҳисобланиб, 5 та устувор йўналиш доирасида 100 та мақсадга эришишга қаратилган. Унинг мақсадлари ва самарадорлик кўрсаткичлари аҳоли томонидан осон қабул қилиниб, тушуниш учун қулай шаклда баён этилган. Жумладан, аҳоли талабларига ва халқаро стандартларга тўлиқ жавоб берадиган таълим, тиббиёт ва ижтимоий ҳимоя тизимини яратиш, барқарор иқтисодий ўсиш орқали аҳоли фаровонлигини таъминлаш, аҳоли учун қулай экологик шароитларни яратиш, сув ресурсларини тежаш, халқ хизматидаги адолатли ва замонавий давлатни барпо этиш, қонун устуворлигини таъминлаш, мамлакатни хавфсиз ва тинчликсевар давлатга айлантириш ишларини давом эттириш, очик, прагматик ва фаол ташқи сиёсат олиб бориш бўйича ислохотлар ҳамда мамлакатимиз хавфсизлиги ва мудофаа салоҳиятини кучайтириш бўйича ислохотларнинг асосий йўналишлари ҳисобланади.

“Ўзбекистон – 2030” стратегияси Ўзбекистонда ҳар бир йилга бериладиган номлардан келиб чиқиб қабул қилинадиган Давлат дастурлари асосида амалга ошириб борилади. Янги Ўзбекистонни барпо этиш бўйича хоҳиш-иродасини рўёбга чиқариш, кучли иқтисодий шакллантириш, адолат, қонун устуворлиги, соғлом, билимли ва маънавий баркамол авлодни тарбиялаш, хавфсизлик ва барқарорликни кафолатли таъминлашда муҳим ўрин тутди.

Шуни қайд этиш жоизки, Стратегияда ёшларни қўллаб-қувватлаш борасида ҳам қатор вазифалар ўз аксини топган. Чунки ёшлар масаласи мамлакатимиздаги энг муҳим йўналиш ҳисобланади. Чунки Биз қўяётган қадам, амалга оширадиган ислохотларимиз ўз натижасини бериши учун ҳаракатни ёшларни қўллаб-қувватлашдан бошлашимиз лозим. Ватан тақдирига дахлдор эканлигини ҳис қилиб яшаш ва бериладиган имкониятлардан унумли фойдаланиш ҳар бир Ўзбекистон фарзандининг муқаддас бурчидир. Замонавий билим ва кўникмаларга эга, мамлакатнинг муносиб келажиги учун жавобгарликни ўз зиммасига ола билладиган баркамол, мақсадга

интилувчан ва серғайрат ёшларни тарбиялаш мамлакатни барқарор ва илдам ривожлантиришнинг энг муҳим шартидир. Мамлакатимиз тараққиёти ҳар томонлама ўсиб-униб келаётган навқирон авлоднинг таълим-тарбияси, маънавияти ва маданияти билан чамбарчас боғлиқ. Зеро, баркамол авлод ва юксак ахлоқли ватанпарвар ёшлар бугунимиз ва эртанимизнинг ҳақиқий давомчиларидир.

Бундан ташқари, Стратегия доирасида илм-фан ва инновациялар соҳаси, ижтимоий хизматлар кўрсатиш, ёшларга оид давлат сиёсати ва спортни оммалаштириш, маънавий тараққиётни таъминлаш ва маданият соҳасини янги босқичга олиб чиқиш бўйича амалга ошириладиган барча ислохотларда инсон, инсоннинг қадри, ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфатлари устувор аҳамият касб этади. Қолаверса, коррупциянинг олдини олишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Яъни, 2030 йилга қадар бутун қонунчилик коррупциядан холи бўлади. Бу ҳам давлат олдида турган энг муҳим вазифалардан бири ҳисобланади. Дейлик, давлат харидлари билан боғлиқ соҳаларда ёки манфаатлар тўқнашуви муносабатларида коррупцион ҳолатларнинг олдини олиш ва бу соҳани рақамлаштиришга асосий мақсад сифатида қаралмоқда. Бу ўз навбатида, қонунчилик ҳужжатларининг тартибга солиш таъсирини баҳолаш тизимини янада ривожлантириш, ҳуқуқ тизими рақобатбардошлигини ошириш, содда ва илҳам қонунчилик тизими ҳамда қулай ҳуқуқий шароитлар яратиш, шунингдек, тўғридан-тўғри амал қиладиган қонунларни қабул қилиш амалиёти кенгайтириш, норма ижодкорлиги жараёнини тўлиқ рақамлаштириш, қонунчилик таклифларини илгари суриш бўйича янги конституциявий институтни амалга ошириш механизмларини жорий этиш сингари вазифаларни изчил амалга оширишни талаб қилади.

Барқарор иқтисодий ўсиш орқали аҳоли фаровонлигини таъминлаш йўналишида асосан иқтисодий ислохотларни ривожлантириш, бунда аҳоли даромадларини ошириш, саноатнинг энг илғор соҳаларини ривожлантириш, банк тизимида ислохотларни жадаллаштириш, ташқи ва ички туризмни ривожлантириш



каби 17 та мақсад ўрин олганлигини кўришимиз мумкин.

Яна бир устувор йўналишлардан бу, сув ресурсларини тежаш ва атроф-муҳитни муҳофаза қилишдаги вазифалардир. Стратегия лойиҳасида ушбу йўналишда энг долзарб мақсадлардан сувдан фойдаланиш маданиятини ошириш ҳисобланади, шунингдек, тизимда “Яшил энергия” технологияларини кенг жорий қилиш, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш тизимидаги ислохотлар ҳам мамлакатдаги иқлим ўзгариши билан боғлиқ глобал муаммоларнинг салбий таъсирининг олдини олиш каби 12 та муҳим мақсад ўрин олган.

Стратегиянинг ҳар бир банди мамлакатимиз тараққиётига, халқимиз манфаатларига хизмат қилади. Демакки, бу ҳар биримизнинг ҳаётимиз учун жуда муҳим дастур ҳисобланади. Мазкур стратегияни амалга ошириш ва унинг мақсадли кўрсаткичларига эришиш барча давлат органлари ва ташкилотларнинг энг устувор вазифасидир. Шундай экан, ФВВ тизими фаолиятида ҳам амалга ошириладиган ишларни эътироф этиш ўринли бўлади. Хусусан, жорий йилда республикамизда юзага келиши мумкин бўлган фавқулодда вазиятлар ва ёнғинларнинг олдини олиш, содир бўлганда уларни зудлик билан бартараф этиш чораларини кўриш борасида самарали ишлар амалга оширилмоқда. Аҳолини ва раҳбарлар таркибини фавқулодда вазиятларда тўғри ҳаракат қилишга тайёрлаш мақсадида аҳоли қатлами билан мулоқотни кенгайтириш, бу борада “маҳаллабай” ва “хонадонбай” ишлаш тизимини ривожлантириш, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари ва бошқа фуқаролик жамияти институтлари билан фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ва уларни бартараф этиш соҳасида ўзаро ҳамкорликни янада кучайтиришга эришилмоқда. Аҳоли ва ҳудудлар хавфсизлигига таҳдидлар, табиий ва техноген хусусиятли хавф манбаларини ҳисобга олган ҳолда, туманлар ва шаҳарлар миқёсида кучлар ва воситаларни самарали тақсимлаш, аҳоли ҳаёти ва соғлиғига хавф туғилганда ўз вақтида ва сифатли ёрдам кўрсатувчи ФВДТ

хизматларининг тезкор ҳаракатини мувофиқлаштириш механизмни янада такомиллаштиришга жиддий аҳамият қаратилмоқда. Фавқулодда вазиятлар рўй бериш хавфини барвақт аниқлаш бўйича мониторинг, таҳлил ва прогноз қилиш тизимини янада кучайтириш, аҳолининг барча қатламларини фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ва бундай вазиятларда ҳаракат қилишга тайёрлаш ишларини тизимли равишда олиб бориш борасида ҳам эътирофга лойиқ ишлар бажарилмоқда.

Ҳа, бир сўз билан айтганда, “Ўзбекистон – 2030” стратегияси келгуси етти йилга мўлжалланган, ривожланишимизга хизмат қиладиган муҳим ҳужжат бўлди. Унда барча соҳа ва йўналишларда бир қатор устувор мақсад-вазифалар ўз аксини топган. Стратегияда белгиланган мақсад-вазифалар барқарор ривожланиш миллий мақсадларини амалга ошириш учун ўзига хос “йўл харитаси” вазифасини ўтайди. Барқарор ривожланишнинг янги талабларидан келиб чиққан ҳолда, юртимизда экологик вазиятни яхшилаш, шу жумладан, ўсимлик ва ҳайвонот оламини ҳимоя қилиш ва асраш бўйича янгича ёндашув асосида ислохотлар давом эттирилмоқда. Шуларга мос равишда экологик масалаларга бўлган муносабат тубдан ўзгариб, уни бошқариш ва тартибга солувчи қонунчилик базаси такомиллаштириладигани ҳамда янгича экологик тафаккур, экологик дунёқараш шаклланиб, аҳолининг экологик маданияти юксалиб бораётгани диққатга сазовор.

Мамлакатимизнинг янгиланган Конституциясида ҳам Оролбўйи минтақаси экологик тизимини муҳофаза қилиш ҳамда тиклаш, минтақани ижтимоий ва иқтисодий жиҳатдан ривожлантириш юзасидан давлат томонидан чоралар кўрилиши алоҳида белгилаб қўйилди. Бу эса сўнгги йилларда Оролбўйи ҳудудида амалга ошириладиган кенг кўламли эзгу саъй-ҳаракатларни изчил давом эттиришда ҳуқуқий кафолат бўлиб хизмат қилади. Оролбўйи ҳудудида амалга ошириладиган ишларда ФВВ ходимларининг ҳам ҳиссаси катта бўлмоқда.

Анвар ҚОБИЛОВ тайёрлади.





### ФВВ Фуқаро муҳофазаси институти 71031902 – “Фавқулдда вазиятларда аҳоли хавфсизлиги” мутахассислиги бўйича 2024/2025 ўқув йили учун Магистратура босқичига қабул эълон қилади

ФВВ Фуқаро муҳофазаси институти магистратурага олий таълим муассасаларининг “Ҳаётий фаолият хавфсизлиги” йўналиши бўйича бакалаврият босқичини тамомлаган олий маълумотли мутахассислар ҳамда Фавқулдда вазиятларнинг олдини олиш ва бундай вазиятларда ҳаракат қилиш давлат тизимига кирувчи вазирликлар, идораларнинг аҳоли ва ҳудудларни фавқулдда вазиятлардан муҳофаза қилиш соҳасида беш йилдан кам бўлмаган меҳнат стажига эга бўлган, олий маълумотли ходимлари учун қабул квотаси 10 нафар (1 нафар номзод давлат гранти, 9 нафари тўлов-контракт асосида) этиб белгиланган.

Магистратурага киришда номзодлар қабул комиссиясига қуйидаги ҳужжатларнинг электрон вариантини fvvfmi@mail.uz

электрон манзилига тақдим этадилар:

1. Магистратура мутахассислиги кўрсатилган ҳолда Фавқулдда вазиятлар вазирлиги Фуқаро муҳофазаси институти бошлиғи номига ариза;

2. Фуқаролик паспорти нусхаси;

3. Олий маълумот тўғрисидаги ҳужжатнинг нусхаси (ёки дипломдан кўчирма – Ўзбекистон Республикаси олий таълим муассасаларини давлат гранти бўйича ўқиётганлар учун) ҳамда унга илова;

4. 3.5 x 4.5 ҳажмдаги фотосурат (электрон шаклда);

5. 086-У-шаклдаги тиббий маълумотнома нусхаси;

6. Қонун ҳужжатларига мувофиқ олий таълим муассасасига киришда имтиёз берувчи ҳужжатнинг нусхаси;

7. Меҳнат дафтарчаси нусхаси (тегишли соҳада фаолият олиб бораётганлар учун);

8. Идора ва ташкилот раҳбарларининг йўлланмаси (тегишли соҳада фаолият олиб бораётганлар учун).

*Институт магистратурасига ҳужжатлар жорий йилнинг 15 июль кунидан 15 август кунига қадар қабул қилинади.*

**Манзил:** Тошкент шаҳри, Мирзо Улуғбек тумани, “Алишеробод” МФЙ Анайбулоқ кўчаси 3-уй.

**Тел:** 71-230-50-72, 71-266-50-36.

**e-mail:** fvvfmi@mail.uz

*Фавқулдда вазиятлар вазирлиги  
Фуқаро муҳофазаси институти  
қабул комиссияси*



# Vaziyat

газетаси

**Муассис:**  
**Ўзбекистон**  
**Республикаси**  
**Фавқулдда**  
**вазиятлар**  
**вазирлиги**

**Бош муҳаррир**  
**Азамат СУЙОНОВ**

*Газета таҳририят*  
*компьютерхонасида*  
*саҳифаланди.*

Газета ҳар ҳафтанинг  
пайшанба куни чиқади.  
Топшириш вақти – 15.00  
Топширилди – 15.00

**Навбатчи:**  
**А.ҚОБИЛОВ**

Таҳририятга юборилган  
материаллар қайтарилмайди  
ва изоҳ берилмайди.  
Муаллифлар фикри таҳририят  
нуқтаи назаридан фарқланиши  
мумкин.

Газетадан олинган материаллар  
манбаси кўрсатилиши шарт.

Газета Ўзбекистон Матбуот ва  
ахборот агентлигида 2007 йил  
3 январда 0096-сон рақам  
билан рўйхатга олинган

**ISSN 2091-5292**

**Таҳририят манзили:**  
100084, Тошкент шаҳри,  
Юнусобод тумани,  
Ш.Рашидов кўчаси, 17-А уй.  
**Тел.:** (71) 212-69-56  
**Телеграмм:** (90) 016-87-67

**Индекс:**  
*якка обуначилар ва*  
*ташкилотлар учун – 382*

Газета “BUSINESS PRINT DESIGN”  
босмахонасида босилди.  
Манзил: Тошкент шаҳри,  
Сўғалли ота кўчаси, 5-уй.  
Буюртма №  
Бичими: А3, ҳажми: 2,0 б.т.  
Адади – 7400 нусха

## ДУНЁ АЖОЙИБОТЛАРИ



### БАНКЛАР ҚАЧОН ПАЙДО БЎЛГАН?

Бугунги кунда банклар бизга шу қадар кўп хизмат турларини кўрсатадики, ҳатто уларнинг асосий вазифаси атиги 2 та эканлигини ҳам унутиб қўямиз. Биринчидан, банк кишилардан омонатларини қабул қилади ва уларни ўзида сақлайди, иккинчидан, олган қарзи ҳисобига фоиз тўловига рози бўлган кишиларга пул қарз беради.

Банк ишлари доим пулга алоқадор бўлганлиги учун тарихда одамлар бу муассасани ёқтирмаган пайтлар ҳам бўлган. Пулга ўта қизиқувчанлик хусусияти ахлоқсизлик ҳисобланиб, ҳатто шундай мамлакатлар ҳам бўлганки, улар ўз фуқароларининг банклар билан ҳар қандай муомаласини ҳам тақиқлаган.

Бироқ, шундай бўлсада банк иши худди тарихнинг ўзи каби кўҳна ва қадимийдир. Қадимги Бобилда, Мисрда ва Юнонистонда ҳам банклар бўлган. Одатда ибодатхоналарга ҳам одамлар пулларини олиб бориб сақлаб қўйганлар. Эрамиздан аввалги 210 йилда Римда алоҳида фармон билан пул алмаштириб берувчи — саррофлар учун махсус жой ажратилган.

“Банк” сўзининг ўзи эса Италияда пайдо бўлган. Ўрта асрларда саррофлар шаҳар кўчаларидаги дўконларда ўтиришган. Италия тилида “банко” сўзи “ўриндиқ” деган маънони беради, “банк” сўзи ана шундан келиб чиққандир.

Ҳозирги банк тизими илк бор Венецияда 1583 йилда, “Банко ди Риалто” ташкил этилган пайдо бўлди. Мазкур банк мижозлардан омонатларини олар ва муайян суммага чек олишга рухсат берарди. 1619 йилда “Банко дел Джиро” бу банкни ҳам эгаллаб олди ва мижозлардан омонатларини олтин ва кумушда олганлиги ҳақида тилхат бера бошлади. Бу тилхатлар пул ўрнида ишлатила бошлади. 1609 йилда таш-

кил топган «Амстердам Банки» кейинчалик “банк пуллари”, деб ном олган тилхатларни бера бошлади.

1694 йилга қадар Англияда Англия банки ташкил қилинганча банкирлар ўрнини заргарлар босишган. Англия Банки то 1825 йилгача бу мамлакатдаги ягона банк ҳисобланган. Америкадаги биринчи банк “Шимолий Америка банки” ҳисобланиб, у 1782 йилда Конгресс томонидан ташкил этилган.

### ЕР ШАРИНИ НИМА ТУТИБ ТУРАДИ?

Одамлар қадим замонларда Ер шари ҳақида нималарни тўқиб-бичишмаган. Масалан, уни катта оби-нон, қалин қуймоқ ёки тоққа ўхшатишган. Бугунги кунда жажжи болакайдан сўрасангиз ҳам, у ҳеч иккиланмасдан бизнинг сайёрамиз шар шаклида эканини айтиб беради.

Ер шарини нима тутиб туради, деган савол туғилиши табиий. Қадим замон одамлари Ерни қалин бир қуймоқ тарзида тасаввур қилишганида, у тиргаксиз туриши мумкин эмас, деб ўйлашган. Шунинг учун ҳам қуймоқ филларнинг елкасида, филлар эса улкан тошбақанинг устида туради, деган хулосага келишган. Шу тариқа Ердаги эмас, космик океанда сузиб юрадиган қизиқ бир пирамида — эҳром ҳосил бўлган.

Албатта, бугунги кунда бундай чўпчакка ҳеч ким ишонмайди. Лекин Ерни нима тутиб туради? Мабоодо, уни ҳеч нарса тутиб турмаслигини ва остида ҳеч қандай тиргак йўқ эканини билиб қолсангиз, сиз буни қандай тасаввур қилар эдингиз?



Савол, албатта, қийин. Келинг, яхшиси, саволга жавоб излаб топишни

оддий нарсадан бошлаш қолайлик. Бир фараз қилиб кўринг: сув тўла челақни бошингиз устида ағдарсангиз нима бўлади? Тўғри, сув бошингизга тўкилиб кетади. Энди, бор-эй, таваккал, деб шундай бир цирк номерини бажариб кўринг. Болалар челақчасига ип боғланг-да, олдин уни бўш ҳолда, сўнг-ра сув тўлдириб бошингиз узра айлан-тиринг. Яхшиси, буни ташқарида машқ қилганингиз маъқул. Машқларни такрорлайверсангиз, айланаётган челақдан бирор томчи сув ҳам ерга тушмай қолади. Агар челақни айлантиришни тўсатдан тўхтатсангиз, сув устингизга тўкилиб, кийим-бошингиз шалаббо бўлади. Демак, челақ ҳаракатда бўлган вақтда сув тўкилмади, бироқ у ҳаракатдан тўхташи билан тўнгарилган челақда сув турмай, тўкилиб кетди.

Ер айланаётганда ҳам худди шундай ҳол юз беради. Ҳақиқатан ҳам Ер шарини ҳеч нарса муаллақ тутиб турмайди, унинг қулаб кетмаслиги сабаби Қуёш атрофида бетўхтов ҳар бири бир йилга тенг бўлган айлана кетидан айлана ясаб ҳаракат қилаверишидир. Албатта, Ер Қуёшга ҳеч бир арқон билан боғлаб қўйилмаган. Аслида арқоннинг кераги ҳам йўқ. Усиз ҳам Қуёш Ер ва бошқа сайёраларни ўзига тортиб туради. Ер бир вақтнинг ўзида ҳам Қуёшга томон қулайди, ҳам ундан узоқлашиб кетаётган бўлади. Натижада миллиардлаб йиллардан бери учиб ҳам кетмай, қулаб ҳам тушмай, Қуёш атрофида айланади...

Агар, Қуёш Ерни тортиб турмаганида космик фазонинг бирор томонига учиб кетган бўлар эди. Мабоодо, Ер нима сабабдандир айланишдан тўхтаб қолганида Қуёшга қулаб тушиши мумкин эди. Яхшики, у учиб ҳам кетмайди, қулаб ҳам тушмайди.

Ер бир дақиқа ҳам тўхтамай, ўз орбитаси бўйлаб учиб кетаётган экан, биз ҳам у билан биргаликда учиб кет-япмиз.

Ер шари Қуёш атрофида айланиши билан биргаликда ўз ўқи атрофида ҳам пилдиरोқ ўйинчоқ сингари бир кеча-кундузда бир марта айланади. Шунинг учун ҳам биз ўз ўқи атрофида айланадиган каруселда яшаётганга ўхшаймиз. Ер Қуёшга гоҳ у, гоҳ бу томони билан қараб айланаверади. Шу сабабдан кун билан тун тўхтовсиз алмашиниб туради.

**Анвар ҚОБИЛОВ тайёрлади.**